

**BANK TIZIMIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH: RAQAMLI
TRANSFORMATSIYA VA RISKLARNI BOSHQARISH**

Rashidov Bahodir

*Millat Umidi universiteti Xalqaro biznes fakulteti Biznes boshqaruv yo`nalishi 4-
kurs talabasi*

Anotatsiya: *Ushbu maqolada mahalliy va xalqaro banklar faoliyatida moliyaviy – iqtisodiy ko`rsatkichlarni barqarorlashtirishda raqamli transformatsiya hamda risklarni boshqarish ahamiyati va o`rni tahlil qilinadi. Zamonaviy Fintech texnologiyalarining banklar tizimida foydalanishi -bu texnologiyalarning xavfsizlikka hamda mahalliy va xalqaro mezonlarga mos risk boshqaruvi tajribalari yoritiladi. Tadqiqot metodologiyasi uchun statistik yondashuv, banklarda yuzaga keladigan amaliy holatlar hamda solishtirma tahlil usullaridan foydalanilgan. Maqola xulosasi va takliflari zamonaviy bank xizmatlarining moliyaviy risklarni kamaytirish va bank faoliyati tizimini samarali tashkil etish hamda yangi tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim asos bo`ladi.*

Kalit so`zlar: *Bank tizimi, Moliyaviy barqarorlik, Raqamli transformatsiya, Risklarni boshqarish, Raqamli texnologiyalar, Kredit risklari, Kiberxavfsizlik, Operatsion samaradorlik, Innovatsion moliya yechimlari*

KIRISH

Bank tizimida moliyaviy barqarorlik-bu banklar faoliyatining iqtisodiy munosabatlarda davomli va samarali ish faoliyatini olin borish ,vujudga keladigan moliyaviy va iqtisodiy muommolarni o`z vaqtida yengish va istemolchilar ishonchini bank tizimi ucun saqlab qolish qobilyatidir.

Moliyaviy barqarorlik yurtimizning makro va mikroiqtisodiy ko`rsatkichi ,pul-kredit siyosati hamda investitsiya jozibadorligi samaradorligini taminlash bilan uzviy bog`liq hisoblanadi.U mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi, investitsiya muhiti va pul-kredit siyosati samaradorligi bilan bevosita bog`liq.

So`ngi Jahon banki statistikalariga kora, moliyaviy boshqaruv tizimi barqaror davlatlarda iqtisodiy ko`tarilish jarayonlari o`rtacha 1,5-2 foizga ko`p bo`ladi. Shuning uchun bank tizimi davlatning moliyaviy markasi , shu bilan birgalikda iqtisodiyotning ``yuragi`` hisoblanadi.

Oxirgi besh yilda raqamli texnologiyalar transformatsiyasi mahalliy va xalqaro bank tizimini tubdan o`zgartirdi. Mobil bank xizmatlari, blokcheyn texnologiyalari, sun'iy intellekt asosidagi risk tahlili, real vaqt to'lov tizimlari va "open banking" kabi innovatsiyalar mijozlarga xizmat ko'rsatish tezligi va sifati bo'yicha yangi standartlarni belgiladi.

Dunyo bo'yicha statistika malumotlarga asosan mobil bank foydalanuvchilari soni 2.5 milliardga yetkan. Yuqoridagi raqamlar bank tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish naqadar ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda ham raqamli transformatsiya jadallashmoqda. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilda banklarning mobil ilovalari orqali jismoniy shaxslar tomonidan masofadan amalga oshirilgan onlayn operatsiyalar $\approx 396,7$ trln so'mni tashkil etdi. 2023-yilda mobil bank ilovalari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 300 trillion so'mga yaqinlashdi, bu 2019-yilga nisbatan 4,5 baravar ko'pdir. "Payme", "Click", "Apelsin" kabi fintech xizmatlari, "Humo" va "Uzcard" tizimlarining integratsiyasi milliy to'lov infratuzilmasini yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, raqamli transformatsiya imkoniyatlari bilan birga yangi xavf-xatarlarni ham yuzaga keltirmoqda. Kiberxavfsizlik tahdidlari, texnik nosozliklar va operatsion risklar moliyaviy barqarorlikka bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli raqamli texnologiyalarni joriy etishda xalqaro standartlarga asoslangan risk menejmenti tizimlarini rivojlantirish strategik zarurat hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Mahalliy va xalqaro bank tizimlarida moliyaviy barqarorlik, raqamli transformatsiya hamda risklarni boshqarish va ularni oldini olish masalalari xalqaro ilmiy manbalarda keng yoritilgan. Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) o'zining yillik Global Financial Stability Report hisobotlarida bank tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini tahlil qiladi. Misol uchun aytadigan bo'lsak:

2023-2024 yillardagi hisobotda fintech xizmatlarining kirib kelishi kredit bozorida raqobatni kuchaytirgani, lekin bir vaqtning o'zida yangi turdagi kiberxavfsizlik xavflarini yuzaga keltirgani qayd etilgan. Jahon banki (World Bank) esa Digital Financial Inclusion loyihalari orqali rivojlanayotgan mamlakatlarda mobil to'lov tizimlari, onlayn kredit platformalari va blockchain asosidagi xizmatlarning samaradorligini o'rganib, ularning moliyaviy qamrov darajasini oshirishdagi rolini alohida ta'kidlaydi. Bank for International Settlements (BIS) esa Basel III va boshqa prudensial standartlar doirasida raqamli risk menejmenti amaliyotlarini yoritib, xalqaro bank tizimida qo'llanilayotgan ilg'or texnologik yechimlarni tavsiflaydi. So'ngi yillarda Fintech texnologiyalari mavzusi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar sezilarli darajada ko'paydi. Masalan, Chen va kum tomonidan olib borilgan tadqiqotda sun'iy intellekt asosidagi risk baholash algoritmlari kredit portfellarining defolt darajasini 15–20% ga kamaytirishi mumkinligi ilmiy asoslab berilgan. Shu bilan birga, KPMG va Deloitte kompaniyalari tayyorlagan tahlillarda "open banking" platformalari banklar va uchinchi tomon xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida integratsiyani kuchaytirishi, mijozlarga moslashtirilgan xizmatlarni taqdim etishda muhim vosita bo'lishi ta'kidlangan.

O'zbekistonda bank tizimida raqamli texnologiyalar bo'yicha ishlanmalar so'nggi besh yilda faollashdi. Markaziy bank, "Uzcard" va "Humo" to'lov tizimlari, shuningdek,

“Payme”, “Click” va boshqa xususiy fintech kompaniyalar tomonidan elektron to'lovlar, onlayn kreditlash va raqamli identifikatsiya tizimlari yo'lga qo'yildi. Mahalliy ilmiy maqolalarda, asosan, raqamli bank xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi, ularni joriy etishda duch kelinadigan texnik va huquqiy muammolar hamda risklarni kamaytirish choralariga e'tibor qaratilgan. Shu bilan, xalqaro tajriba va mahalliy ishlanmalarining uyg'unligi O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonlarini yanada tezlashtirish imkonini beradi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotni amalgam oshirishda solishtirma va statistik tahlillaradan foydalanildi. O'zbekiston bank tizimining raqamli texnologiyalar transformatsiyasi oxirgi besh yillik ko'rsatkichlari statistik tahlil orqali o'rganildi hamda kiberxavfsizlik holati, mobil to'lovlar ulushi va elektron tranzaksiyalar hakmi chuqur tahlil qilindi. Solishtirma tahlil jarayoni davomida yurtimiz bank tizimi Singapur, AQSH va Buyuk Britaniya singari rivojlangan davlatlar bilan taqqoslandi. Bank tizimida risk menejmenti samaradorligini baholashda Basel III ko'rsatkichi orqali baholanadi. Ushbu maqola axborot manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank ochiq statistik bazasi, Xalqaro hisobotlar va Bank for International Settlements (BIS) axborot tahlil va tadqiqotlaridan foydalanildi.

Tahliliy bo'lim

O'zbekistonda bank tizimining raqamli transformatsiyasi 2018-yildan boshlab jadallashdi. Markaziy bank tashabbuslari, “Humo” va “Uzcard” tizimlarining integratsiyasi hamda fintech xizmatlarining kengayishi natijasida elektron tranzaksiyalar hajmi 2019-yildagi 66 trillion so'mdan 2023-yilda 300 trillion so'mga yetdi. Mobil to'lovlar eng tez o'sayotgan segment bo'lib, “Payme”, “Click”, “Apelsin” kabi platformalar millionlab foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatmoqda.

il	Tranzaksiyalar hajmi (trln so'm)	O'sish sur'ati (avvalgi yilga nisbatan)	2019-yilga nisbatan o'sish (marta)	Izoh
019	66 trln so'm	—	1,0 marta	Mobil banking endigina ommalashib borayotgan davr.
020	120 trln so'm (taxminiy)	82%	1,8 marta	Pandemiya davrida raqamli to'lovlarga talab keskin oshdi.
021	190 trln so'm (taxminiy)	58%	2,9 marta	Onlayn bank xizmatlari soni va foydalanuvchilar soni ortdi.

022	240 trln so'm (rasmiyga yaqin)	26%	3,6 marta	Mobil ilovalarda kommunal va davlat xizmatlari to'lovlari kengaydi.
023	≈300 trln so'm	25%	4,5 marta	Foydalanuvchilar soni 20 milliondan oshdi, to'lov tizimlari integratsiyasi kuchaydi.
024	≈396,7 trln so'm	32%	6,0 marta	Raqamli bank xizmatlari iqtisodiyotning muhim qismi bo'ldi, yangi fintex loyihalar ishga tushdi.

1-jadval

Mobil bank ilovalari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi

Blokcheyn texnologiyalari ayrim banklar tomonidan xalqaro to'lovlarni tezkor va shaffof amalga oshirish uchun joriy etilgan. Sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar esa kredit risklarini baholash, firibgarlikni aniqlash va mijozlar bilan interaktiv aloqa (chatbotlar) uchun qo'llanilmoqda.

Biroq raqamli xizmatlar kengayishi bilan kiberxavfsizlik masalalari ham dolzarblashdi. 2023-yilda O'zbekistonda bank sektorida qayd etilgan kiberhujumlar soni 18% ga oshdi. Shu bois ma'lumotlarni himoya qilish, xavfsizlik protokollarini yangilash va xodimlar malakasini oshirish strategik zaruratga aylandi. Mobil bank ilovalari rivojlanishida eng dolzarb muammolardan biri kiberxavfsizlik masalasidir. Raqamli to'lovlar hajmining ortishi bilan kiberhujumlar, zararli dasturlar va fishing holatlari ko'paymoqda. Foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari hamda moliyaviy mablag'larini himoya qilish maqsadida bank tizimlarida ko'p bosqichli himoya mexanizmlari, ikki bosqichli autentifikatsiya tizimlari va biometrik identifikatsiya usullarini joriy etish zarur. Doimiy xavfsizlik auditlari ham tizim barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Ma'lumotlar maxfiylikni ta'minlash masalasi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Foydalanuvchilarning shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlari uchinchi shaxslarga o'tib ketishi bank obro'siga va mijozlar ishonchiga jiddiy zarar yetkazadi. Shu sababli, end-to-end shifrlash tizimlaridan foydalanish, ma'lumotlarga kirish huquqlarini qat'iy nazorat ostida saqlash hamda xodimlar uchun axborot maxfiylik bo'yicha ichki siyosatlarni ishlab chiqish muhim strategik chora sifatida qaraladi.

Texnik nosozliklar riski ham mobil bankingda asosiy xavf turlaridan biridir. Serverlarda yoki dasturiy ta'minotda yuzaga keladigan xatoliklar mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlarning to'xtab qolishiga olib keladi. Bunday holatlarning oldini olish uchun banklar o'z infratuzilmasida zaxira serverlar va cloud texnologiyalarini keng joriy etishlari, shuningdek, failover mexanizmlaridan foydalanishlari lozim. Bu chora-tadbirlar tizimda nosozlik yuzaga kelgan holatlarda xizmatlarning uzluksizligini ta'minlaydi.

Foydalanuvchi xatti-harakatiga bog'liq risklar ham mobil banking sohasida keng uchraydi. Mijozlarning moliyaviy savodsizligi yoki ehtiyotsizligi ularni firibgarlik usullariga uchrash ehtimolini oshiradi. Shu sababli, banklar tomonidan foydalanuvchilarning moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha maxsus dasturlarni ishlab chiqish, xavfsizlik bo'yicha ogohlantiruvchi SMS yuborish, shuningdek, onlayn o'quv modullarini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

Mobil bank tizimining kengayishi moliyaviy xizmatlar qulayligini oshirsa-da, xavfsizlik jihatlariga e'tibor qaratish zarur. Kiberxavfsizlikni ta'minlash, ma'lumotlar maxfiyligini saqlash, texnik tizimlarning barqaror ishlashini nazorat qilish va foydalanuvchilarni ogohlikka chorlovchi tashabbuslarni amalga oshirish bank tizimining raqamli davrda barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Shu yo'l bilan moliyaviy texnologiyalar sohasida ishonchli, xavfsiz va barqaror muhitni shakllantirish mumkin bo'ladi.

Xulosa

Yurtimiz bank tizimiga raqamli transformatsiyalar kirib kelishi orqali mobil banking tizimi ham jadal rivojlana boshladi va yangi imkoniyatlar eshigi ochildi. Mobil to'lovlar, blokcheyn va sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar mijozlarga qulaylik yaratib, moliyaviy xizmatlar sifatini oshirmoqda. Biroq bu jarayon kiberxavfsizlik va risklarni boshqarishning yangi bosqichini talab etadi. Chunki, raqamli transformatsiya jarayonida yangi turdagi -operatsion, kiberjinoyatchilik hamda texnologik risklar vujudga keldi. Shuning uchun risklarni o'z vaqtida samarali oldini olish juda muhim hisoblanadi. Risklarni to'g'ri boshqarish banklarga: moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirish, kredit, likvidlik, bozor risklarini to'g'ri nazorat qilish hamda xavfsizlikni taminlashda muhim o'rin tutadi. Xalqaro standartlarga mos yondashuvlar va ilg'or texnologiyalarni uyg'unlashtirish bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. International Monetary Fund (IMF). Global Financial Stability Report 2023. Washington, D.C.: IMF, 2023.
2. The World Bank. Digital Financial Inclusion and Financial Stability. Washington, D.C.: World Bank, 2023.
3. Bank for International Settlements (BIS). Basel III: Finalising post-crisis reforms. Basel: BIS, 2022.
4. Statista. Number of Mobile Banking Users Worldwide 2015–2023. Hamburg: Statista Research Department, 2023.
5. Deloitte. The Future of Risk Management in Banking. London: Deloitte Insights, 2022.
6. KPMG. Fintech Trends 2023. London: KPMG International, 2023.

7. Chen, L., et al. AI-Driven Credit Risk Assessment in Banking. Journal of Financial Technology, 7(2), 45–60, 2022.

8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimida raqamli transformatsiya bo'yicha yillik hisobot. Toshkent: Markaziy bank, 2023.